

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>Sh.Yodgorov</b>	
Misrning mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash siyosatida diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash xususiyatlari.....	551
<b>Sh.Latipov</b>	
Autentik matnda lakunalarning ifodalanishi .....	548
<b>M.Baybaeva, I.Imomov</b>	
Talabalarning nizoli xulq atvorini pedagogik tashxis etishning sinergetik tuzilmali modeli.....	551
<b>F.Temirov</b>	
Sadriddin Ayniy ijodida Turkiston tarixi masalalari.....	555
<b>X.Qodirov, N.Abdullajonova</b>	
Hamkorlik pedagogikasining insonparvarlik xususiyatlarini shakllantirishdagi ahamiyati .....	560
<b>M.A.Abdumalikova</b>	
“Ming Bir Kecha” - sharq xalqlari ijodining ajoyib durdonasi .....	564
<b>M.A.Fayzullaeva</b>	
Ta'lim klasteri sharoitida ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirishning ilmiy tahlili .....	567
<b>B.Abdullayev</b>	
Farg'ona vodiysi so'ngi Bronza va Iik temir davrida.....	572
<b>S.M.Isroilova</b>	
Oliy o'quv yurtlari talabalarida etakchilik fazilatlarini shakllantirish.....	586
<b>Sh.Sh.Qosimova, M.M.Darmanov</b>	
In vitro texnologiyasi asosida maxalliy uzum navlarini ko'paytirish. ....	589
<b>D.R.Uralov</b>	
Tog'ay Murod qissa va romanlarini o'qitishning hozirgi kundagi dolzarb jihatlari .....	593
<b>M.F.Nishonov, O.M.Umarova</b>	
<i>Chicorium intybus L.</i> o'simligining elementlar tarkibi va miqdorini o'rganish. ....	598
<b>E.X.Bozorov, A.N.Jo'liiyev</b>	
Neytronlar fizikasi fani ma'ruzlarini o'qitishda “Venn diagrammasi” usulidan foydalanish .....	602
<b>M.M.Bokiyev, I.R.Asqarov</b>	
Ateroskleroz kasalligini davolashda ayrim sintetik dorilar va yerqalampirni ahamiyati .....	606
<b>R.A.Abdukarimova</b>	
Oilaning ijtimoylashuvida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning falsafiy mohiyati .....	609

## “MING BIR KECHA” - SHARQ XALQLARI IJODINING AJOYIB DURDONASI

## «ТЫСЯЧА И ОДНА НОЧЬ» - ЗАМЕЧАТЕЛЬНЫЙ ШЕДЕВР ТВОРЕНИЯ ВОСТОЧНЫХ НАРОДОВ

## "A THOUSAND AND ONE NIGHTS" - A WONDERFUL MASTERPIECE OF CREATION OF EASTERN PEOPLE

Abdumalikova Muazzamxon Abdumannon qizi<sup>1</sup><sup>1</sup>Abdumalikova Muazzamxon Abdumannon qizi – Farg'ona davlat universiteti talabasi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Sharq xalqlari ijodining ajoyib durdonasi bo'lmish “Ming bir kecha” asari nodir adabiy yodgorliklardan bo'lib, asrlar davomida kitobxonlar qalbidan chuqur joy olib kelganligi haqida fikr yuritilgan. Asarning ko'pgina ertak va qissalari nafaqat g'arb yoki sharqliklar, balki o'zbek xalqi orasida ham juda mashhurliki ta'kidlangan. Uning ajoyib va g'aroyib hikoyat va rivoyatlari o'z latofati, sodda tili bilan ko'p asrlardan buyon kitobxonlar qalbini zabt etib kelayotgani, asar nasriy hikoyat uslubida yozilgan bo'lib, ora-orada qissalar mazmunini chuqurlashtirish, unga yoqimlilik va chiroy baxsh etish maqsadida she'riy parchalar ham berilganligi izohlangan. Maqolada G.A.Astanovaning tadqiqoti va ilmiy qarashlariga tayanilgan.

**Аннотация**

В данной статье рассматривается тот факт, что произведение «Тысяча и одна ночь», являющееся прекрасным шедевром творчества народов Востока, является одним из редких литературных памятников, и заняло глубокое место в сердцах читателей. На века. Отмечено, что многие сказки и рассказы произведения пользуются большой популярностью не только у жителей Запада или Востока, но и у узбекского народа. Его чудесные и странные рассказы и повести уже много столетий покоряют сердца читателей своим изяществом и простым языком, поясняется, что для этого давались и поэтические отрывки. Статья опирается на исследования и научные взгляды Г.А.Астановой.

**Abstract**

This article discusses the fact that the work "One Thousand and One Nights", which is a wonderful masterpiece of the creativity of the peoples of the East, is one of the rare literary monuments, and has brought a deep place in the hearts of readers for centuries. It is noted that many tales and stories of the work are very popular not only among Westerners or Easterners, but also among the Uzbek people. His wonderful and strange stories and narratives have been winning the hearts of readers for many centuries with their grace and simple language. It is explained that poetic passages were also given for the purpose. The article relies on the research and scientific views of G.A.Astanova.

**Kalit so'zlar:** “Ming bir kecha” asari, badiiy-ilmiy tafakkur, mubolag'ali so'z o'yinlari.

**Ключевые слова:** «Тысяча и одна ночь», художественно-научное мышление, гипербола игры.

**Key words:** "One Thousand and One Nights", artistic-scientific thinking, hyperbole games.

**KIRISH**

Insoniyat tarixida qadim qadimdan turkiy xalqlar adabiyotiga qiziqish hamda badiiy-estetik tafakkur taraqqiyotida muhim o'rin egallagan ijodkorlar ma'naviy merosini o'rganish barcha davrlarda muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, jahon ilm-fan taraqqiyotiga serqirra ijodi bilan beqiyos hissa qo'shgan, dunyo adabiyoti taraqqiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan turkiy mumtoz adabiyot namoyandalari merosini, badiiy-ilmiy tafakkur durdonalarini yangicha yondashuv va tamoyillar asosida tadqiq etish hozirda dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan muhim masala sanaladi.

Dunyo sivilizatsiyasi taraqqiyotida munosib o'ringa ega bo'lgan har bir durdona adabiy asarning o'z tarixi va zalvori mavjud. Ko'plab millat va elatlar madaniyatiga ta'sir etib ulgurgan muayyan adabiy badiiy obida asarlar to'raligicha tarixga aylangandek bo'lib ko'rinsa-da, u yoki bu tarzda bugungi kun badiiy ijodida ham o'z jilosini hech yo'qotmaydi. Asarning nodirligi ham ana shunda ko'rinadi.

Jahon adabiyotida munosib o'rin egallagan, Sharq xalqlari ijodining ajoyib durdonasi bo'lmish “Ming bir kecha” asari nodir adabiy yodgorliklardan bo'lib, asrlar davomida kitobxonlar qalbidan chuqur joy olib keldi. Asarning ko'pgina ertak va qissalari nafaqat g'arb yoki bsharqliklar, balki o'zbek xalqi orasida ham juda mashhur. Uning ajoyib va g'aroyib hikoyat va rivoyatlari o'z latofati, sodda tili bilan ko'p asrlardan buyon kitobxonlar qalbini zabt etib keldi. Shu bilan birga mubolag'ali

so'z o'yinlari bilan Sharq xalqlari – hindlar, forslar, arablarning gullagan ijodiy xayolining beqiyos kuchini namoyish etadi. Undagi ertaklarning rang barangligi, tilining soddaligi, badiiy tasvir vositalaridan ustalik bilan foydalanganligi, voqealar rivoji, qahramonlar xulq-atvorining jozibadorligi asarning o'ziga xos uslubi sanaladi. Asar nasriy hikoyat uslubida yozilgan bo'lib, ora-orada qissalar mazmunini chuqurlashtirish, unga yoqimlilik va chiroy baxsh etish maqsadida she'riy parchalar ham beriladi. "Ming bir kecha" asarining paydo bo'lish tarixi hamma zamonlarda ham soha tadqiqotchilarini qiziqtirib kelgan masalalardan biridir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

O'zbek olimlaridan N.I.Ibrohimov, T.A.Muxtorov[1]lar o'z ilmiy izlanishlarida mazkur masalada kengroq to'xtaldilar. Jumladan, N.I.Ibrohimov "Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayohati" [2], "O'rta asr arab xalq adabiyoti" kitobida "Ming bir kecha" asarining xalq siralari bilan bog'liqlik jihatlariga to'xtaladi va qimmatli ma'lumotlarni keltiradi. Professor T.A.Muxtorov arablarning "Bir yuz bir kecha" asari haqida izlanishida "Ming bir kecha" haqida ham kengroq to'xtaladi[1]. Ayniqsa, G.A.Astanovanning "Ming bir kecha" va o'zbek adabiyoti (poetik, qiyosiy-tipologik tahlil) nomli doktorlik dissertatsiyasida asar haqida atroflicha ma'lumot bergan[3]. Mazkur maqolada ham G.A.Astanovanning ilmiy qarashlariga tayanildi.

Shuningdek, bugungi kunda ham "Ming bir kecha" asari jahon adabiyoti durdonasi sifatida hamon dunyoning turli mintaqasida o'raganilib kelinayotgani sir emas. Asar tadqiqotiga bag'ishlangan dissertatsiyalar ham buni e'tirof etadi. Frantsuz tadqiqotchisi L.Misheyev asarning tili haqida quyidagi fikrlarni ilgari surgan: "Avvalo Shahrizoda va uning so'ylagan ertaklariga mahliyo bo'lgan podsho Shahriyor ismlarini olsak, bu nomlarning forscha ekanligi o'z-o'zidan ko'rinib turibdi. Ertaklarning tili ham sof arabcha emas. Shuningdek, bu ertaklarda islom aqidalariga mos tushmaydigan o'rinlar bor"[4]. U yana yozadi: "X asr arab tarixchisi Mas'udiy o'zining "Oltin cho'pchaklar" nomli kitobida forschadan arabchaga tarjima qilingan kitoblar to'g'risida ma'lumot berarkan, deydi: "Forschasiga "Hezor afsone" deb atalmish kitob ham shu xil asarlar jumlasiga kiradi. Mazkur kitobda podsho va uning vaziri, vazirning Shahrizoda ismli qizi va Dinorzod ismli cho'risi to'g'risida hikoya qilinadi[4].

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bu ulkan asar birdaniga bir kishi tomonidan yaratilmagan bo'lib, u juda qadim zamonlardan boshlab turkum-turkum hikoya va qissalar shaklida el orasida kezgan bo'lib, keyinchalik ular jamlanib, bir tizimga keltirilgan, degan fikrni olimlar ilgari surishgan<sup>1</sup>. Asar "Ming bir kecha" deb nomlangan bo'lsa ham, undagi ertaklar soni ming bittani tashkil etmaydi. Xanna al-Faxuri o'zining "Arab adabiyoti tarixi" kitobida "Ming bir kecha" haqida asarning turli xil mavzuga oid bo'lgan kulgili kechinmalar, latifalar, yumoristik hikoyalar to'plamidan iborat ekanligini, unda hammasi bo'lib 264 ta hikoya borligini, "ming" so'zi bu erda faqat mubolag'ali bo'rtirma bo'lib, hikoyalar sonini aniq ko'rsatadigan raqam emasligini ta'kidlagan[3]. "Ming bir kecha" asari taxminlarga qaraganda, III asrda poydevori yaratilgan bo'lib, ayrim ertaklarning Islomdan oldin paydo bo'lganligi va bu 226–652 yillarda Eronda hukm surgan Sosoniylar davriga to'g'ri kelishini olimlar taxmin qilishadi. O'rta asr arab manbalari "Ming bir kecha" asarining kelib chiqishi haqida turli taxminlarni ilgari suradi. X asr arab tarixchi olimi o'zining "Kitab al-Fixrist" asarida "Ming bir kecha" asarining paydo bo'lishi haqida deydi: "Forslar afsonalarning birinchi mualliflaridan edilar. Uni bir kitob shakliga aylantirib, o'z xazinalarida saqladilar.

Uni hayvonlar tilidan hikoyat qilar edilar. Shu ma'noda yozilgan birinchi kitob mingta afsonani o'z ichiga olib "Ming afsona" ("Hezor afsone") nomini oldi. Arablar uni o'z tillariga tarjima qilib, fasohat va balog'at bilan tahrir qildilar<sup>4</sup>. Ta'kidlash joizki, mazkur asarning dastlab qaysi tilda yozilgani haqidagi farazlar ham ko'p.

Natijada XIX asrda asarning kelib chiqishi haqida ikki xil kontseptsiya vujudga keldi. Ya'ni, "hind-eron" va "arab" hikoyatlari. "Hinderon" kontseptsiyasini Y.Xammer-Purgshtal birinchi bo'lib aniqlaydi. U buning uchun al-Mas'udiy va Ibn an-Nadim ko'rsatmalariga suyanib, "Ming bir kecha" asosi Eron hikoyatlaridan olingan bo'lib, "Hezor afsone"ning arabcha tarjimasi hamda unga hind, eron, yunon hikoyatlari aralashgan, yana Horun ar-Rashidga bag'ishlangan latifalar ham o'rin olgan, degan xulosaga keladi. Olim "Ming bir kecha"ning kelib chiqishini Xalifa al-Ma'mun (813–833) davriga taqab, Umaviylar va Abbosiylar davriga tegishlilikini, shuningdek, Misr podshohlilari davri hikoyatlari keyinchalik qo'shilganligini e'tirof etadi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, “Ming bir kecha” asari uslubi — hikoya ichida hikoya tuzilishiga ega boʻlgan yirik asar hisoblanib, janr jihatidan ham rang-barangdir. Unda koʻpincha sevgi-muhabbat haqidagi hikoyatlar, sehrlil-fantastik hikoyatlar, hayotiy novellalar, makr-hiyalga oid hikoyatlar, sayohatlar haqidagi, qahramonlar haqidagi, shuningdek oʻrta asr arablarining eng sevimli janri boʻlgan pand-nasihatga oid hikoyat va rivoyatlari oʻrin olgan. Latifalar qahramoni odatda hayotiy shaxslardan olingan, masalan, xalifalar, qozilar, mashhur shoir va olimlar ishtirok etishadi. Shunga koʻra “Ming bir kecha” asari hikoyatlari bir-biridan hajmi, yaratilish vaqti, mazmun-mohiyati, badiiyligi jihatidan farqlanadi.

#### ADABIYOTLAR ROʻYXATI (REFERENCES)

1. Мухтаров Т.А. Очерки средневековой арабской прозы. – Ташкент, 1992; Мухтаров Т.А., Серикбаева Ж. Навадир в средневековой арабской литературе. – Алматы, 2000. – 229 с.
2. Иброҳимов Н.Ибн Баттута ва унинг Урта Осиёга саёҳати. – Т.:Фан, 1993. – 103 б. 33.
3. Астанова Г.А. “Минг бир кеча” ва ўзбек адабиёти (поэтик, қиёсий-типологик таҳлил) : Фил.ф.д.(DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Самарқанд, 2021.– Б. 18-34.
4. Мишеев Л. Минг бир кеча ёки Шаҳризоданинг сири. // Фан ва турмуш ; Т.: 1972; №3. – Б. 34.17